



XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

TRANSCHEGARAVIY GIDRORESURLARDAN BARQAROR FOYDALANISHNING
SIYOSIY-HUQUQIY MEKANIZMLARI VA ULARNING FALSAFIY-MA'NAVIY ASOSLARI



2-IYUN
2026-YIL



Qo'qon shahri,
Qo'qon davlat universiteti



Xalqaro
miqyosda



MUSTAQILLIK DAVRIDA O'ZBEKISTONDA YER-SUV MASALALARINING ISLOH QILINISHI DOIR DASTLABKI QADAMLAR: YUTUQ VA MUAMMOLAR.

Abdujalilova Muxlisaxon Abduxalil qizi

Qo'qon DU o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada mustaqillik yillari O'zbekistonda suv xo'jaligi tizimidagi islohotlarning amalga oshirilganligi, respublika sug'orish tizimida suv resurslaridan oqilona va tejamli usulda foydalanishga alohida e'tibor qaratilishi, sohada modernizatsiya jarayonlari yildan-yilga asta-sekin takomillashib borganligi manbalar yordamida tahlil qilingan. Bu borada aynan shu davrda tizimni taraqqiy ettirish va uni huquqiy jihatdan kafolatlash maqsadida bir qancha qarorlar, qonunlar ishlab chiqildi va hayotga tatbiq etilganligi masalalari ham ochib berilgan.

Kalit so'zlar: suv xo'jaligi, suv resurslari, melioratsiya va irrigatsiya, sug'orish texnologiyalari, suv ombori, drenaj va kollektorlar, islohot.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng barcha sohalarda bo'lgani kabi suv xo'jaligi tizimida ham muhim islohot va bir qator tadbirlar amalga oshirildi. Bugungi kunda respublika sug'orish tizimida suv resurslaridan oqilona va tejamli usulda foydalanishga alohida e'tibor qaratilib, sohadagi modernizatsiya jarayonlari yildan-yilga asta-sekin takomillashtirilmoqda. Aynan shu davrda tizimni taraqqiy ettirish va uni huquqiy jihatdan kafolatlash maqsadida bir qancha qarorlar, qonunlar ishlab chiqildi va hayotga tatbiq etildi.

Jumladan, 1992 yil 7 aprelda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasidagi suv omborlari va boshqa suv havzalari, daryolar, magistral kanallar va kollektorlarning, shuningdek, ichimlik suv va maishiy suv ta'minotining, davolash va madaniy-sog'lomlashtirishda ishlatiladigan suv manbalarining suvni muhofaza qilish zonalari haqidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida»gi qarorining qabul qilinishi muhim tarixiy ahamiyatga ega bo'ldi.

Mazkur qarorga ko'ra, daryolar, suv omborlari, suv havzalari va suv ta'minoti barcha manbalarini sanoat, qurilish, transport, qishloq xo'jaligi va boshqa ob'ektlarning zararli ta'siridan muhofaza qilishni kuchaytirish maqsadida bir qancha tadbirlar ishlab chiqildi.

Vazirlar Mahkamasi quyidagilarga qaror qildi, ya'ni O'zbekiston Respublikasidagi suv omborlari va boshqa suv havzalari, daryolar, magistral kanallar va kollektorlarning, shu bilan bir qatorda, ichimlik va maishiy suv ta'minotining, davolash va madaniy-sog'lomlashtirishda ishlatiladigan suv manbalarining suvni muhofaza qilish zonalari haqidagi Nizomni tasdiqladi.

Mamlakatimizda suv resurslaridan oqilona foydalanish, yerning meliorativ holatini yaxshilash, suv xo'jaligi inshootlarini takomillashtirish va zamonaviylashtirish borasida katta ishlar qilinmoqda. Jumladan, suvni tejaydigan texnologiyalar

(tomchilatib, yomg'irlatib, egatga plyonka to'shab, egiluvchan quvurlar yordamida sug'orish) keng joriy etilmoqda.

Suv xo'jaligining eng quyi bo'g'inida suvdan foydalanishga doir munosabatlarni tartibga solish maqsadida 1497 ta Suv iste'molchilari uyushmasi tashkil etildi.

Yerlarning meliorativ holatini yaxshilash uchun 2008-2012 yillarga mo'ljallangan Davlat dasturi hayotga tatbiq etildi, shu asosda kollektordrenaj tarmoqlarida tizimli rekonstruksiya va tozalash-ta'mirlash ishlari olib borildi. Bu ishlar mamlakatimiz suv xo'jaligi va melioratsiya sohasini rivojlantirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish, aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashda samara bermoqda.

Mavjud suv manbalaridan tejimli va oqilona foydalanishda suv xo'jaligiga oid huquqiy asosni takomillashtirish muhim hayotiy ahamiyatga ega. Albatta, bu borada muayyan ishlar qilindi.

Shulardan biri «Qishloq va suv xo'jaligida iqtisodiy islohotlarning chuqurlashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi Qonundir. Unga asosan qishloq va suv xo'jaligi sohasiga oid 10 ta Qonun hujjatlariga, jumladan, «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi Qonunga qator o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Tegishli qonunchilikda suvdan oqilona foydalanish, uni tejaydigan texnologiyalarni hayotga joriy etish, gidrotexnik inshootlarning texnik holatini yaxshilashga qaratilgan bir qancha me'yorlar ishlab chiqildi va amaliyotga joriy qilindi.

«Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi Qonunga kiritilgan o'zgartirishga asosan Suvdan foydalanuvchilar uyushmalari (SFU) Suv iste'molchilari uyushmalariga (SIU) aylantirilib, ularning maqomi, majburiyat va vazifalari aniq belgilab berildi. Shuningdek, «Ma'muriy javobgarlik to'g'risida»gi Qonunga kiritilgan o'zgartirishga binoan suvdan foydalanish qoidalarini buzgan shaxslarga qo'llaniladigan jarimalar miqdori ikki baravarga oshdi. Bu, suvdan foydalanuvchilar va iste'molchilarning masuliyatini yanada oshirishga xizmat qiladi, albatta.

Ayni paytda Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Agrar va suv xo'jaligi masalalari qo'mitasi a'zolari suv va suvdan foydalanishga doir qonunosti hujjatlarini takomillashtirish bo'yicha Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi va boshqa mutasaddi idoralar bilan hamkorlik qilmoqda.

Xususan, «Suvdan foydalanish va suvni iste'mol qilish tartibi» bo'yicha loyiha ishlab chiqildi va ko'rib chiqish uchun Vazirlar Mahkamasiga taqdim qilingan. Bundan tashqari, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Tabiatni muhofaza qilish davlat Qo'mitasi bilan hamkorlikda «Suvdan maxsus foydalanish va suvni maxsus iste'mol qilish uchun ruxsatnoma berish tartibi» bo'yicha loyiha ishlab chiqilib, kelishish uchun tegishli vazirlik va idoralarga kiritildi.

Hozirgi kunda respublikamizda sug'oriladigan yerlar 4,31 million gektarni yoki umumiy maydonning 9,7 foizini tashkil etadi. Ularda qishloq xo'jaligi mahsulotlarining to'qson foizi yetishtiriladi. Ekin maydonlarini soz holatga keltirish va yer osti sizot suvlari sathini me'yorida ushlab turish ishlari 141 ming kilometr uzunlikdagi kollektor-drenaj tarmog'i, 3475 ta tik zax qochirish qudug'i hamda 123 ta meliorativ nasos stansiyasi orqali bajariladi.

Ta'kidlash joizki, mamlakatimizda yerni muhofaza qilish, ayniqsa, ekin maydonlarini melioratsiyalash ishlariga katta e'tibor qaratilmoqda. Quvonarlisi, o'tkazilgan tahlillar yurtimizda ushbu yo'nalishda muayyan samaradorlikka erishilayotganini ko'rsatmoqda. Masalan, sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi mablag'lari hisobidan aynan shu maqsadga 227,5 milliard so'm yo'naltirilgan. 237 ta loyiha doirasida esa tizimli ta'mirlash va tiklash ishlari amalga oshirilgan. Pirovardida 260 ming gektardan ortiq sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash imkoniyati yaratildi.

Bundan tashqari, respublikamizda umumiy foydalaniladigan suv manbalarining asosiy qismi sug'oriladigan yerlarga to'g'ri keladi. Bu esa, o'z navbatida, undan oqilona foydalanishni, mavjud irrigatsiya tizimlari faoliyatini yanada yaxshilashni talab etadi. Shundan kelib chiqib, «O'zmeliomashlizing» davlat lizing kompaniyasi bilan tuzilgan shartnomaga binoan, o'tgan yilda sohaga ixtisoslashtirilgan korxonalarga, fermer xo'jaliklariga jami 189 ta meliorativ texnika va mashina-mexanizm yetkazib berildiki, bu mazkur yo'nalishdagi ishlarni jadallashtirishda qo'l kelayapti.

Mutaxassislarning fikricha, tuproq unumdorligining pasayishiga, asosan, minerallashtirish sizot suvlari sathining ko'tarilishi natijasida yuzaga kelayotgan sho'rlanish, eroziyaga qarshi tadbirlar to'liq amalga oshirilmasligi, organik va mineral o'g'itlar qo'llashda me'yorlarga rioya qilmaslik kabi holatlar sabab bo'lmoqda.

Shunday ekan, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash yuzasidan ko'rilayotgan chora-tadbirlar nafaqat undan oqilona foydalanish yoki qishloq xo'jaligida yuqori hosildorlikka erishishga qaratilganligi, ayni paytda turmushimiz yanada farovon bo'lishiga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

XX asrga kelib, insonning tabiatni bo'ysundirishga urinishi, iqlim o'zgarishi, suvning qishloq xo'jaligi va sanoatda isrof qilinishi, ayrim davlatlarning undan siyosiy maqsadlarda foydalanishi jiddiy xavf-xatar tug'dirmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, hozir dunyoning 1 milliarddan ko'proq aholisi toza ichimlik suvisiz qiynalmoqda.

Butunjahon Suv Kengashi ma'lum qilishicha, 2050 yilga borib sayyoramiz aholisining uchdan ikki qismi chuchuk suv tanqisligi muammosiga duchor bo'ladi. Ko'rinib turibdiki, suv manbalaridan oqilona foydalanish, bu borada huquqiy asosni takomillashtirish bugungi kunning dolzarb vazifasi. Mamlakatimizda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining 98 foizi sug'orma dehqonchilik hissasiga to'g'ri keladi. Sug'oriladigan maydonlarni hamda iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarini suv bilan ta'minlash uchun 180 ming km. kanal, 141 ming km. zovurdan iborat suv xo'jaligi tizimi tashkil topgan. Uning samarali ishlashi uchun har yili Davlat byudjetidan katta mablag' ajratilmoqda.

«Suv ob'ektlarining suvni muhofaza qilish zonalari, qirg'oq bo'yi mintaqa maydonlari va sanitariya muhofaza zonalari to'g'risidagi Nizom» loyihasi ishlab chiqilmoqda.

Mazkur hujjatlarda suvni tejaydigan texnologiyalarni keng joriy qilish, suv resurslaridan tejamli va oqilona foydalanishni tashkil etish, suv ifloslanishi va kamayib ketishining oldini olish bilan bog'liq masalalarga jiddiy e'tibor qaratilgan. Qonun ijrosi bilan kuchli.

Shu bois, qabul qilingan qonun hujjatlarining ijrosini muntazam o'rganib borish, huquqni qo'llash sohasida yuzaga kelayotgan nuqsonlarni aniqlash, yo'l qo'yilayotgan

kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha hayotiy takliflarni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. O'tgan yili tegishli vazirlik va idoralar bilan birga «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi Qonunning Surxondaryo, Toshkent, Samarqand va Buxoro viloyatlaridagi ijrosi tahliliy o'rganildi. Shu asosda qonundagi me'yorlarni hayotga yanada samarali tatbiq etish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqildi, qonun ijrosidagi kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan muayyan tadbirlar belgilab olindi. Shu o'rinda aytish kerakki, tegishli qonunchilik bo'yicha tahlillar suv xo'jaligiga doir qonunchilikni yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagi takliflarni amaliyotda qo'llash orqali biz sug'orish tarmoqlarida vujudga kelayotgan kamchiliklarni bartaraf qilish, suvdan foydalanish madaniyatini shakllantirish, kadrlar tayyorlash, tarmoqlardagi boshqaruv ishini takomillashtirish, ilg'or mamlakatlar bilan tajriba almashish, ulardagi zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etish orqali sug'orish tizimini yanada samarali tashkillashtirishimiz mumkin.

Hozirgi paytda sug'orishning quyidagi usullari, turlari mavjud:

1. Yer ustidan, yuzasidan sug'orish.
2. Yomg'ir latib sug'orish.
3. Tuproq ostidan, ichidan sug'orish.
4. Tomchilatib sug'orish.
5. Purkab, mayda dispersli, aerosol, tumanlatib sug'orish.

Sug'orish usuli, turi sug'orish tartibiga, sug'orishda mehnat unumdorligiga, yerning meliorativ holatiga tekislash ishlariga, suv tarmoqlari joylashishiga, konstruksiyasiga, qurilish va ekspluatatsiya harajatlariga, mahsulot unumdorligiga va boshqalarga ta'sir qiladi. Uning turini to'g'ri tanlash qishloq xo'jalik ekinlari hosilini va mahsuldorligini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Suv resurslarini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2019 yil 9 oktyabrdagi PQ-4486-son Qarori // <https://lex.uz/docs/4545898>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2018 yil 17 apreldagi PQ-3672-son Qarori // <https://lex.uz/docs/3687875>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2018 yil 28 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi // [https://nrm.uz/contentf?doc=573929_o'zbekiston_respublikasi_prezidenti_shavkat_mirziyoevning_oliy_majlisga_murojaatnomasi_\(2018_yil_28_dekabr\)](https://nrm.uz/contentf?doc=573929_o'zbekiston_respublikasi_prezidenti_shavkat_mirziyoevning_oliy_majlisga_murojaatnomasi_(2018_yil_28_dekabr))
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-sonli farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami.-Toshkent: Adolat, 2017. -B.25-150.
5. Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida» 2018 yil 3 iyuldagi 500-son Qarori // <https://lex.uz/docs/3812729>
6. Qo'ldoshev J. Suv manbalaridan oqilona foydalanaylik // O'zbekiston ovozi, 2012 yil 27 aprel.

7. Mahmudov O. Suv resurslaridan tejamli foydalanish hayotiy zaruriyat // O'zbekiston ovozi, 2013 yil 28 mart.
8. Norbekov O, Hayitov A. Suv xo'jaligi hisobot beradi. Qo'llanma. – Toshkent: Baktria press, 2020.
9. www.lex.uz.
10. www.norma.uz